

## Ta'limda Kompetensiyaviy Yondashuv: Nazariy Va Amaliy Xulosalar

*Totliyev O‘. X.<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, o‘qitish metodlari ham o‘zgaradi. Kompetensiyaviy yondashuvda o‘qitish metodlarini tanlash va konstruksiyasini tuzish asoslarini ko‘rib chiqildi. Buning uchun kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini aniqlashtirildi. Uning strukturasi, funksiyasini belgilab olindi. So‘ngra tayanch va fanga oid kompetensiyalarini loyihalash texnologiyasini tuzilgandan so‘ng bu yondashuvdan o‘qitish metodlarini tanlash tamoyillari kelib chiqadi. Maqolada yuqorida keltirilgan nazariy fikrlar amaliy jihatdan o‘z isbotini topadi.

Ta’lim kompetensiyasi o‘quvchini kelajakdagi to‘laqonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma’lum bir yoshga yetgunga qadar ba’zi bir kompetensiyalarni tatbiq eta olmaydi. Lekin bu ularni o‘quvchida shakllantirilmaydi, degani emas. Bu holatda biz ta’lim kompetensiyasi haqida gapiramiz. Masalan, o‘quvchi mактабда fuqarolik kompetensiyasini o‘zlashtirsa-da, uni to‘laqonli ravishda maktabni tugatganidan so‘ng ishlatadi. Shunga ko‘ra, bunday kompetensiyalar o‘qish davrida ta’lim kompetensiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Uzviylashtirilgan dasturlarda, jumladan:

- biologiya fani bo‘yicha 6 ta umumiy o‘rta ta’limda va ta’limning keyingi bosqichlarida takrorlangan mavzular chiqarildi;
- fanlararo integrason yondashuvga e’tibor qaratildi;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va psixo-fiziologik rivojlanishlarini e’tiborga olgan holda hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish tamoyili asosida qayta ko‘rib chiqildi.

Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko‘ra darajalarga ajratiladi.

O‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o‘quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

O‘quvchilarda tarkib toptiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratilishini ko‘rsatdi:

1. Tayanch kompetensiyalar – o‘quv rejasidan o‘rin olgan barcha o‘quv fanlari mazmuni va o‘qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar sanaladi.
2. Fanga oid kompetensiyalar - o‘quv rejadan o‘rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o‘quv fanlarni o‘qitishda o‘zaro fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar nazarda tutiladi.
3. Xususiy kompetensiyalar – ta’lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me’yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetensiyalar hisoblanadi<sup>2</sup>.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz uzlusiz ta’lim tizimida ham kompetensiyaviy yondoshuv masalasiga doir o‘ziga xos qarashlar shakllandi. Jumladan, A. Abduqodirov, N.Azizzodjayeva, Y.Asadov,

<sup>1</sup> SamDU doktoranti

<sup>2</sup> [https://www.ziyouz.com/books/kollej\\_va\\_otm\\_darsliklari/biologiya/](https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/biologiya/)



U.Begimqulov, N.Muslimov, N.Turdiyev, J.E.Usarov, R.Fayzullayev, M.M.Vahobovlar tadtiqotlarida masalaning pedagogik-psixologik va metodik jixatlari ochib berilganini kuzatish mumkin.

Professor N.A.Muslimov kompetentlik tushunchasi o‘zida «individning umumiy jamiyatda va xususan kasbiy sohasida faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan, atrofidagi obyektlar va subyektlar bilan o‘zaro xamkorlik bo‘yicha ma’lum bir malakalari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi» ekanligini qayd etadi.

Taniqli psixolog olim Y.Asadov kompetentlik haqida, «Shaxs barcha bilim, ko‘nikma va tajribalarning ijtimoiy-professional mavqeい hamda o‘ziga tegishli bo‘lgan barcha vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodir ekanligi va xaqiqiy moslik darajasi» tushinilishini ta’kidlaydi.

Metodik R.Fayzullayev fikricha, kompetensiya «shaxs tomonidan mukammal o‘zlashtirgan predmet sanaladi va u tanlagan soha faoliyat yuritish uchun tayyorgarlik mezoni vazifasini bajarsa, kompetentlilik undan farqli ravishda shaxsning yo‘naltirilgan tasnifi, bitiruvchining ma’lum sohada faoliyat yuritishi uchun shakllantirilgan ko‘nikmadir» deb ta’riflaydi.

Bizningcha, kompetensiya shaxsning faolligi va mustaqilligi asosida kutilmagan muammoli vaziyatlar yechimini topish, masalani hal qilishning maqbul yo‘llarini belgilash, murakkab topshiriqlarni hayotiy tajribalariga tayangan holda bajarish , shuningdek, o‘z ustida tinimsiz ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish layoqatidir.

Kompetensiyalar har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib, o‘quvchilarning chuqur bilim olishlari va bilimlarini kundalik faoliyatida qo‘llay olishlarini ta’minalashiga ko‘ra belgilanadi. Jumladan, boshlang’ich ta’limga doir kompetensiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

**Bilimlarni o‘zlashtirish:**

butun olamni zamonaviy tabiiy – ilmiy ko‘rinishi shakllantirishda biologik fanlarni o‘rni: tirik olamni bilib olish usullarini: tirik tabiat va unga xos bo‘lgan qonuniyatlarini: tirik organizmlarni tuzilishi, faoliyati va muhitni hosil qiluvchi rolini: inson biososial zot ekanligi haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish. Bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalarini egallash:

tirik tabiatdagi jarayonlar va hodisalarini, o‘z organizmlarning faoliyatini tushunishda biologik va ekologik sohasidagi zamonaviy yutuqlar to‘g‘risidagi ma’lumolardan foydalana olish:

sog‘liq va qaltislik omillari, biologik asbob va ma’lumotlar bilan ishlash:o‘z organizmning holati va boshqa biologik ob‘yektlar ustida kuzatishlar olib borish: biologik tajribalar olib borish:

**Bilimga oid intellektual va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish:**

tirik organizmlar ustida kuzatishlar, biolog tajribalar o‘tkazish:turli ma’lumot ustida ishlash.

Tirik tabiatni qadrlash va unga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish.

Tirik tabiatni qadrlash va ijobiy munosabatda bo‘lish o‘z sog‘ligi va insonlarning sog‘ligini qadrlash tabiatni o‘zini tutish ekologik madaniyatni tarbiyalash. Qobiliyatni va olgan bilim hamda ko‘nikmalarni kundalik hayotda foydalanish. O‘simglik va uy hayvonlarini parvarish qilishda, o‘z sog‘ligini saqlashda o‘ziga va o‘zgalarga birinchi yordam ko‘rsatish; o‘zining faoliyati oqibatlarini atrof muhit, o‘z organizmi, o‘zgalarning sog‘ligiga ta’sirini baholash; tabiatda o‘zini tutish qoidalariga amal qilish; sog‘lom turmush tarzi normalari; kasallik jarohatlar va streslarni, zararli odatlar, OIV/OITS – infeksiyaning oldini olish.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida interfaol ta’lim texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga erishish mumkin. Eng muhimmi, interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi aniq maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etadi[89;23-c.].



Ta'lim mazmuni ta'lim tizimining eng muhim elementi hisoblanib, hozirgi kunda o'quvchilarning kelajagiga dahldor, rivojlanishi uchun to'liq javob bera olmaydi, ta'lim mazmunini jamiyatning hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda jamiyat rivojlanishiga mos ravishda uni o'zgartirishga to'g'ri keladi. Ta'lim mazmunini o'quvchilar o'zlashtirish natijalari, olgan bilimlarini amaliyotda qay yo'sinda foydalanishi bilan belgilanadi.

Ta'lim mazmuni va o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan kompetensiyalar Ta'lim mazmuni umumiy o'rta ta'limning fanlar bo'yicha o'quv dasturlariga kiritilgan mavzulardan iborat. O'quv materiali ta'limning barcha turlarida uzviylik, uzlusizlik va davriylikni ta'minlaydi (1.1.1-rasm).



1-rasm. Biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati

Har bir ta'lim bosqichida mazkur standart mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturlari va darsliklar ishlab chiqishda minimum sifatida foydalilanadi. O'quvchilar egallashi zarur bo'lgan kompetensiyalar fan bo'limlarida keltirilgan tushunchalar, qoidalar, qonunlardan amaliyotda foydalana olishlarini belgilaydi.

O.G.Smolyaninova o'qituvchi strukturasida ochiq ta'lim sharoitlarida mustaqil ishga tayyorlik darajasini belgilovchi quyidagi kompetentliklarni ajratadi.

Kompetensiyaga asoslangan texnologiyalar doirasida o'qitishga innovatsion yondashuv ta'lim mazmuniga, o'qitish usullari va ta'lim sifatini nazorat qilish shakllariga uzviy bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limdagи innovatsiyalar o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalar, metodlar, uslublar va o'quv vositalari majmuini doimiy takomillashtirishni taqozo etadi. Hozirgi vaqtida innovatsion pedagogik faoliyat o'quv muassasalari ta'lim faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Aynan, innovatsion faoliyat ta'lim xizmatlari bozoridagi tashkilotlarda ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zamin yaratadi, talabalarning shaxsiy o'sishiga, umumiyligiga va kasbiy kompetensiyalarining shakllantirishga, o'qituvchining kasbiy rivojlanishi, ijodiy izlanishiga haqiqatan ham hissa qo'shami.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tayloqov N.I., Rustamov N.R. "Informatika" fanidan elektron darslik. Oliy o'quv yurtlari uchun // O'zbekiston respublikasi davlat patent idorasi. Guvohnoma DGU 01050. 13.02.2006 y.
2. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalar. Ma'ruza matni. motm.tma.uz/site/wr-sontent/.../09/3-2-1-MA'RUZA.pdf.
3. H. E. Костылева, "Восстановление дифференциальных уравнений объекта методами систем с переменной структурой", *Автомат. и телемех.*, 1971, № 10, 64–72; *Autom. Remote Control*, **32**:10 (1971), 1588–1595 Toshtemirov D. E. Informatika va axborot texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. <http://uz.denemetr.com/doss/769/index-317751-1.html?page=6>



4. Tursunov S. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Diss.p.f.n. -T. 2011.154 b.
5. Шаматова Ю.Ю. Интернет-зависимость среди молодежи. Таврический научный обозреватель. Электронный журнал. №11(16)-ноябр 2016. Стр. 50-52.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/internet-zavisimost-sredi-molodezhi>
6. Шарипов А. Как создать электронный учебник в программе TurboSite 1.7.1.  
<https://artursharipov.ru/article/15>

